

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Menejment» kafedrası

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI

fanidan kurs ishini bajarish bo`yicha

USLUBIY KO`RSATMALAR

Tuzuvchilar:

**dots. Ro`ziyeva D.I.,
dots.Ulashev X.A.,
Gaffarova D.T.,
Musayeva J.K.
Norova S.Yu.**

BUXORO-2016

«Menejment» kafedrasining majlisida ko`rib chiqildi.

Bayon № “ _____ ” _____ 2016 yil

BMTI ilmiy uslubiy kengashi majlisida tasdiqlandi.

Bayon № “ _____ ” _____ 2016 yil

Tuzuvchilar:

**dots. Ro`ziyeva D.I.,
dots.Ulashev X.A.,
Gaffarova D.T.,
Musayeva J.K.
Norova S.Yu.**

Taqrizchilar:

Toirova M.M. -Bux DU «Iqtisodiyot»
kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi
Azimov B.F. - BMTI «Menejment»
kafedrasida dotsenti

Kurs ishida ishlab chiqarish korxonasi texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlaridan biri tahlil qilinadi. Bunda tahlil qilinayotgan mavzuning nazariy jihatlarini 1 bobda yoritiladi, mavzuning iqtisodiy, moliyaviy tahlili II bobda yoritiladi va III bobda shu mavzuni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar beriladi.

Kurs ishi ishlab chiqarish korxonasi mehnat va mehnatga haq to`lash tahlili, asosiy fondlarning tarkibi tuzilishi, texnik holati va ulardan foydalanish tahlili, mahsulot ishlab chiqarish, assortimenti, sifati va sotish xajmi tahlili, korxonaning moliyaviy holati tahlili, moddiy resurslardan va aylanma aktivlardan foydalanish tahlili, korxonaning foyda va rentabellik ko`rsatkichlari tahlili, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tahlili kabi mavzularni o`z ichiga olib turli xil ob`ektlarda bajariladi.

Kurs ishini bajarish bo`yicha ushbu uslubiy ko`rsatma Menejment (sohalar bo`yicha), Kasb ta`limi (Menejment) yo`nalishi bakalavrlari uchun mo`ljallangan.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirish, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiya yangiliklari bilan qurollantirib borish, boshqaruv tizimlarini samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan biri bo`lib bormoqda.

Bizga ma`lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan biri bo`lib hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish va korxonalarining xo`jalik faoliyatini tahlil qilish natijasida olingan ma`lumotlarga tayanib, bu vazifalarni bajarish borasida korxonalarining ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatini chuqur va muntazam tarzda tahlil qilib borish zaruriyati tug`iladi.

«Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanidan kurs ishini bajarishdan maqsad-ushbu fandan olingan bilimlarni yanada mustahkamlash, nazariy bilimlarni aniq iqtisodiy masalalarni yechishda qo`llay olishni o`rgatishdir.

Kurs ishini bajarishda talabalar 3 - boskichdan keyin o`tilgan malakaviy amaliyot natijasida olingan bilim va ko`nikmalari asosida bajaradi. Tanlangan kurs ishi mavzusiga ob`ekt belgilanadi. Kurs ishini bajarish uchun kerakli ma`lumotlar kurs ishi rahbari tomonidan ishlab chiqarish korxonasining hisobot shakllari bo`yicha yig`ilgan ma`lumotlar ko`rib chiqiladi va talabaga foydalanishga ruxsat beriladi.

Kurs ishi chiroyli, toza yozilgan, jadvallar qalamda chizilgan va nomer qo`yilgan, kurs ishining oxirida esa foydalangan adabiyotlar ro`yxati keltirilgan bo`lishi lozim. Kurs ishini himoya qilishda mavzuga tegishli bo`lgan slaydlar tayyorlanadi va kurs ishida ilova qilinadi.

Kurs ishi quyidagi bo`limlardan tashkil topgan.:

Kirish

I Bo`lim Nazariy qism.

II Bo`lim Korxonaning xo`jalik faoliyati tahlili.

III Bo`lim Mavzuga oid taklif va tavsiyalar

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.

Misol uchun: Asosiy fondlarning tarkibi tuzilishi, texnik holati va ulardan foydalanish tahlili. (“Buxorodonmahsulotlari”XJ misolida)

Kirish

I. Bo`lim. Asosiy fondlar tahlili va ularning korxonada tutgan o`rni.

1.1. Asosiy fondlarni tahlilining maqsadi va vazifalari.

1.2. Korxonalarda asosiy fondlarning eskirishi holati tahlili, ularni baholash va ta`mirlash.

1.3. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi va uni oshirish yo`llari.

II. Bo`lim. “Buxorodonmahsulotlari”HJning asosiy fondlarining tahlili.

2.1. “Buxorodonmahsulotlari”HJning tarixi va texnik - iqtisodiy ko`rsatkichlari tahlili.

2.2. Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatining tahlili.

2.3. Asosiy fondlarning texnik holatini tahlil qilish.

2.4. Asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlil qilish.

III. Bo`lim. Korxonaning asosiy fondlar va ulardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo`llariga oid taklif va tavsiyalar.

3.1. Asosiy fondlardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo`llari

Xulosa.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.

Kurs ishini bajarish bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar

Kirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida ishlab chiqarish korxonalarining samaradorligini oshirishning dolzarbligi va bunda korxonalarining xo`jalik faoliyatining tahlilining o`rni, kurs ishining ahamiyati, kurs ishining tuzilishi va tahlil ob`ekti yoritilishi kerak.

Kurs ishining 1-Bo`limida asosiy fondlar va ularning korxonada tutgan o`rni ning nazariy asoslari yoritib beriladi, ya`ni asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o`rni, korxonalarda asosiy fondlarning eskirishi, ularni baholash va ta`mirlash, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi va uni oshirish yo`llari keng yoritiladi.

Kurs ishining 2- Bo`limida tahlil qilinayotgan korxonaning tarixi, tarkibi, qachon qurilganligi, qanday sex va bo`limlardan tashkil topganligi, qaysi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi, mulk shakli, mulk shaklining o`zgargan yili yoritilishi lozim, shuningdek texnik - iqtisodiy ko`rsatkichlari tahlil qilinishi kerak, korxonada asosiy fondlarining tahlili, ya`ni asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatining tahlili, Asosiy fondlarning texnik holatini tahlili, asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlili amalga oshirilishi lozim.

Kurs ishining 3- Bo`limida tahlil qilinayotgan korxonada Asosiy fondlardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo`llari. Takliflar va tadbirlar yoritilishi lozim.

1. Tahlil qilinayotgan korxonaning tarixi va texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari tahlili.

Ushbu bobda korxonaning tarixi, tarkibi, qachon qurilganligi, qanday sex va bo`limlardan tashkil topganligi, qaysi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi, mulk shakli, mulk shaklining o`zgargan yili yoritilishi lozim. Bu ma`lumotlardan tashqari ushbu bo`limda korxonaning asosiy texnik iqtisodiy ko`rsatkichlari tahlil ilinishi kerak.

Korxonaning texnik- iqtisodiy ko`rsatkichlari.

№	Ko`rsatkichlar nomi	O`lchov birligi	Bazis yil	Joriy yil	Joriy yil bazis yilga nis.%
1.	Tovar mahsulot:				
	A) Solishtirma baholarda	mln. so`m			
	B) Harakatdagi baholarda	mln. so`m			
2.	Natural ifodada mahsulot hajmi				
	Jami.- shu jumladan				
	A				
	B)				
	V)				
	g)				
	d)				
3.	SICHX o`rtacha ro`xatdagi soni	kishi			
	shu jumladan ishchilar.	kishi			
4.	Mahsulot sotishdan sof tushum	mln. so`m			
5.	Ish haqi fondi	ming so`m			
6.	Mehnat unumdorligi	ming so`m			
7.	O`rtacha ish haqi	ming so`m			
8.	I/CH va sotish xarajatlari	mln. so`m			
9.	1 so`mlik TM xarajatlari.	tiyin			
10.	Balans foyda	ming so`m			
11.	Fond samarasi	so`m			
12.	Sof foyda	ming so`m			
13.	Asosiy fondlarning o`rtacha yillik qiymati	mln. so`m			
14.	Aylanma aktivlar	mln. so`m			
15.	Jami mulk	mln. so`m			
16.	Kapital rentabelligi	%			

2. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlili

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

- 2.1. Tovar mahsulot reja bajarilishi tahlili.
- 2.2. Mahsulot assortimenti va sifati tahlili.
- 2.3. Mahsulot sotish bo'yicha reja bajarilishining tahlili

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Tahlillarni bajarish uchun **Axborot manbalari sifatida** statistik va buxgalteriya hisobot shakllari (asosan —№ 1, 2 shakl, Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari bo'yicha axborotlar), shuningdek buxgalteriya hisobining alohida sexlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlari, korxonada omboriga tayyor mahsulotning kelib tushishi va sotilishi bo'yicha ma'lumotlardan, shuningdek korxonaning yillik biznes-reja ko'rsatkichlaridan, buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

Bu erda quyidagilar bajarilishi kerak:

A) Joriy yildagi tovar mahsulot hajmi reja yili bilan, rejada qabul qilingan baholarda va harakatdagi ulgurji baholarda taqqoslanadi. Bazis yili bilan esa solishtirma baholarda taqqoslanadi. Joriy yilda tovar mahsulot hajmining o'zgarishiga baholarning o'zgarishi ta'siri aniqlanadi.

Tovar mahsulot tahlili

jadval № --

Ko'rsatkichlar nomi	Bazis yil	Joriy yil			Joriy yil bazis yilga nisbatan, %
		Reja bo'yicha	amalda	Rejaga nisbatan o'sishi %	
Tovar mahsulot solishtirma ulgurji baholarda mln. so'm.					
Tovar mahsulot ulgurji baholarda - rejada qabul qilingan baholarda	X				X
- amalda harakatdagi baholarda	X	X		X	X

B). Mahsulot assortimenti va tuzilishining tahlili.

Mahsulot assortimenti bo'yicha rejaning bajarilishiga baho berish uchun rejadagi mahsulot assortimenti joriy yildagi assortiment bilan solishtirilishi lozim va assortimentlilik koeffitsienti hisoblanishi kerak.

Assortiment bo'yicha reja bajarilishining tahlili

Jadval № ---

Mahsulot turi	Tovar mahsulot hajmi m.so`m.			Assortimentni hisoblash uchun mingso`m.
	Rejada	Amalda	O`shish darajasi %	
A)				
B)				
V)				
D)				
Jami:				

V). Mahsulot sifati tahlili.

Mahsulot sifati tahlil qilishda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ularga quyidagilar kiradi: navlik koeffitsienti, o'rtacha tortilgan baho, reklamatsiya soni va h.k.

Mahsulot sifati tahlili (nav bo'yicha)

jadval № ---

Mahsulotlar navi	Bazis yil		Hisobot yil		Bazis yilga nisbatan farqi %
	Miqdori tonna	Solishtirma vazni, %	Miqdori tonna	Solishtirma vazni	
Birinchi navli mahsulot					
Ikkinchi navli mahsulot					
Jami:					
Navlik koeffitsienti					

Mahsulot sifati tahlili (O'rtacha tortilgan baho)

Jadval №----

Mahsulot navi	Ulgur-ji bahosi m.so`m	Bazis yil		Hisobot yil		Farqi Ming so`m.
		tonna	Ming so`m.	tonna	Ming so`m.	
1. Oliy navli						

mahsulot						
2. 1-navli mahsulot						
3. 2-navli mahsulot						
Jami:						

Olingan ntijalarga baho berish lozim

G). Sotilgan mahsulot tahlili.

Ushbu tahlilda joriy yildagi sotilgan mahsulot hajmi bazis yili bilan taqqoslanishi lozim. Sotilgan mahsulot hajmiga ta`sir qilgan omillar aniqlanishi lozim.

Sotilgan mahsulot hajmini tahlil qilish

Jadval № --.

Ko`rsatkichlar	Bazis yil	Joriy yil	Farqi +,-
Yil boshida ombordagi tayyor mahsulot qoldig'i, ming so`m			
Yil boshidagi yuklab yuborilgan puli to`lanmagan tayyor mahsulot qoldig'i			
Tayyor mahsulot m.s.			
Yil oxirida ombordagi tayyor mahsulot qoldig'i, ming so`m			
Yil oxirida yuklab yuborilgan puli to`lanmagan tayyor mahsulot qoldig'i			
Sotilgan mahsulot m. so`m.			

Bu jadvaldagi ma`lumotlarga asoslanib, sotilgan mahsulot hajmiga ta`sir qiluvchi omillar va ularning ta`siri hisoblanishi kerak
Ushbu bobning oxirida tovar mahsulot, mahsulot assortimenti va sifati, sotilgan mahsulot o`zgarishlariga umumiy baho berilishi lozim. Kamchiliklarni bartaraf qilish bo`yicha chora-tadbirlar, takliflar bildirilishi lozim.

3. Mehnat va mehnatga haq to`lash tahlili.

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

- 1.Mehnat va mehnatga haq to`lash tahlilining vazifalari .
2. Ishchi kuchi bo`yicha mutloq va nisbiy farq tahlili.
3. Ish vaqtidan foydalanishga ta`sir etuvchi omillar
4. Mehnat unumdorligiga ta`sir etuvchi omillar.

.....

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Tahlillarni bajarish uchun **Axborot manbalari sifatida** korxonaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejasi, mehnat bo'yicha statistik hisobot shakllari (Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari bo'yicha axborotlar), kadrlar bo'limining tabel' hisobi, shuningdek ish haqi bo'yicha ma'lumotlar, buxgalteriya hisobining "Mehnat bo'yicha hisobot" №1-T shakli, kadrlar bo'limining ishlovchilarning harakati to'g'risidagi statistik ma'lumotlari va boshqalar .

A). Korxonaning ish kuchi bilan ta'minlanganligi va ish kuchi harakati tahlili.

Tahlilda ish kuchi tarkibidagi absolyut va nisbiy o'zgarishlarni aniqlash, ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va qo'nimsizlik koeffitsientlarini hisoblash lozim.

Korxonaning ish kuchi bilan ta'minlanganligi tahlili

Jadval № --

Ishlovchilar toifasi	Bazis yil	Joriy yil	O'tgan yilga nisbatan farqi	O'sish darajasi, %
Tovar mahsulot, solishtirma baholarda mln.so`m Sanoat ishlab ishlab chiqarish xodimlar soni, kishi SHu jumladan: -ishchilar -injener texnik xodimlar -xizmatchilar -kichik xizmatchi xodimlar -qo`riqchilar				

Ishchi kuchi oqimining tahlili

Jadval № --

Ko`rsatkichlar	Bazis yil	Joriy yil	Farqi	O'sish darajasi %
1.Ishchilar qabul qilindi				
2. Ishdan bo'shadi- jami shu jumladan: • boshqa bo'lim va tashkilotlarga o'tkazildi • armiyaga chaqirildi • pensiyaga chiqqan va shunga o'xshash boshqa sabablar asosida • o'z xohishiga ko`ra				

• mehnat intizomini buzgani uchun				
3. Ishchilarning o`rtacha ro`yxatdagi soni, kishi.				
4. Aylanish koeffitsientlari: <ul style="list-style-type: none"> • qabul qilish bo`yicha • ishdan ketishi bo`yicha 				
5. Qo`nimsizlik koeffitsienti				

B). Ish vaqti fondidan foydalanish va mehnat unimdorligi tahlili.

Ish vaqti fondidan foydalanishga ishchilarning bir yilda ishlagan kunlari va ish kuni davomiyligi ta`sir qiladi. Mehnat unimdorligiga esa yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari ishchilarning soatlik ish unumi ham ta`sir qiladi. Tahlilda ushbu omilarning ta`sirini aniqlash lozim.

Mehnat unimdorligiga ta`sir qilgan omillar tahlili

jadval №--

№	Ko`rsatkichlar nomi	Bazis yil	Joriy yil	Farqi	O`sinh darajasi, %
1.	Tovar mahsulot, solishtirma baholarda mln so`m				
2.	SICHX ning o`rtacha ro`yxatdagi soni, kishi.				
3.	Ishchilarning o`rtacha ro`yxatdagi soni, kishi				
4.	Ishchilarning solishtirma vazni, %				
5.	Ishchilar tomonidan jami ishlangan kishi-kunlar				
6.	Ishchilar tomonidan jami ishlangan kishi-soatlar				
7.	Ish kuni davomiyligi soat				
8.	Bir SICHXga to`g`ri keluvchi o`rtacha yillik ish unumi m.so`m.				
9.	Bir ishchi tomonidan Bir yilda o`rtacha ishlangan kishi kunlari.				
10.	Bir ishchiga to`g`ri keluvchi o`rtacha yillik ish unumi m. so`m				

11.	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumi, so'm				
12.	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi, so'm				

V). Ish haqi fondidan foydalanish tahlili.

Ushbu tahlilda ish haki fondidan foydalanish bo'yicha mutloq va nisbiy farqlarni hisoblash lozim.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi fondidan foydalanishni tahlili

Jadval --

Ko'rsatkichlar	Joriy yil	Hisobot yili	Mutloq farqi	O'sish darajasi, %
Tovar mahsulot. mln so'm				
SICHX soni, kishi				
Ishchilarning o'rtacha yillik soni, kishi.				
SICHXning ish haqi fondi m.so'm				
Ishchilarning ish haqi fondi, ming so'm.				
SICHX ning o'rtacha yillik ish haqi. ming so'm				
Ishchilarning o'rtacha ish haqi, ming so'm				

4-mavzu. Asosiy fondlarning tahlili.

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

- 4.1. Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatining tahlili.
- 4.2. Asosiy fondlarning texnik holatini tahlil qilish.
- 4.3. Asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlil qilish.

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Tahlillarni bajarish uchun **Axborot manbalari sifatida** statistik va buxgalteriya hisobot shakllari (asosan —№ 1 shakl “Korxonaning buxgalteriya balansi”, № 5 shakl “Korxonalar balansiga ilova”, “Ishlab chiqarish quvvati balansi”, korxonaning yillik rejasi ma`lumotlari. Asosiy fondlar tahlilida shuningdek bosh mexanik bo`limining texnik hisobot shakllari, yangi texnika bo`yicha hisobot va buxgalteriya hisobi ma`lumotlaridan foydalanish mumkin.

A). Asosiy fondlarning tuzilishi, harakati va texnik holatining tahlili.

Ushbu tahlilda yangilanish va olib tashlash koeffitsientlarini hisoblash kerak. Yangilanish koeffitsienti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_{yan} = \frac{AF_{o`m} * 100}{AF_{yil\ oxiri}}$$

Bu erda: $AF_{o`m}$ - yangi o`rnatilgan asosiy fondlarning qiymati.

$AF_{yil\ oxiri}$ - asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati.

Olib tashlash koeffitsienti esa quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_{ot} = \frac{AF_{ot} * 100}{AF_{yil\ boshida}}$$

Bu erda: AF_{ot} -hisobot yilda olib tashlangan asosiy fondlarning qiymati,

$AF_{yil\ boshida}$ -Asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibi va tuzilishining tahlili

jadval №--

Asosiy fondlar	Yil boshida		Yil oxirida		Farqi	
	Ming so`m	Solish-tirma vazni,%	Ming so`m.	Solish-tirma vazni, %	Ming so`m	Solish-tirma vazni,%
Binolar						
Inshootlar						
O`tkazuvchi qurilmalar						
Mashina va dastgohlar						

Transport vositalari						
Instrument, ishlab chiqarish, xo`jalik inventarlari va boshqa AF						
Jami:						

Asosiy fondlarning tarkibi va harakatining tahlili

jadval №--

Asosiy fondlar	Yil boshida		O`rnatildi	Olib tashlandi	Yil oxirida		farqi	
	M.s	%			M.s	%	M.s	%
Sanoat ICHF								
ICH dan tashqari AF								
Jami								

Asosiy fondlar texnik holatining tahlili.

jadval №12

Asosiy fondlar	Yil boshida				Yil oxirida			
	Balans qiy-mati m.so`m	Qoldik qiy-mati m.so`m	Eskirish qiy-mati m.so`m	Eskirish koef. %	Balans qiy-mati m.so`m	Qoldik qiymati m. so`m	Eskirish qiy-m. so`m	Eskirish koef. %
Sanoat Ishlab chiqarish fondlari								
ICH dan tashqari A.F.								
Jami:								

B). Asosiy fondlardan foydalanish tahlili.

Ushbu bo`limda asosiy fondlarning va mashina va dastgohlarning fond samarasini hisoblash lozim. Tovar mahsulot hajmiga fond samarasining va asosiy fondlar o`zgarishining ta`sirini tahlil qilish lozim.

Asosiy fondlardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko`rsatkichi bo`lib fondan olinadigan samara hisoblanadi. U asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so`mi hisobiga bir yil ichida Mqancha mahsulot chiqarilganini ko`rsatadi. Masalan, korxonaning yillik mahsuloti 50 million so`mni tashkil etsin, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o`rtacha yillik qiymati esa 10 million so`m deylik. Bunday holda fondan olinadigan samara 5 so`mga teng bo`ladi. Demak, fond samarasi ko`rsatkichini hisoblash uchun tovar mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarining o`rtacha yillik qiymatiga bo`linadi. Buni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin.

TM

Fs=-----

Af

bu erda: Fs- fond samarasi.

TM- tovar mahsulot,

Af- asosiy ishlab chiqarish fondlarining o`rtacha yillik qiymati

Asosiy fondlardan foydalanishning tahlili

jadval №13

Ko`rsatkichlar	Bazis yil	Hisobot yili	O`tgan yilga nisbatan farqi
Tovar mahsulot m. so`m			
Asosiy fondlarning o`rtacha yillik qiymati, m.so`m			
Mashina va dastgohlarning o`rtacha yillik qiymati m.s			
Fond samarasi (1 so`mlik asosiy fond uchun)			
Fond samarasi (1 so`mlik mashina va dastgohlar uchun)			

5. Moddiy resurslardan foydalanishning tahlili

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

5.1. Material sarfini kamaytirishning ahamiyati.

5.2. Moddiy resursardan foydalanishning tahlili

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Ushbu bo`limda korxonaning xom-ashyo materiallar bilan ta`minlanganligi, moddiy xarajatlarning uzgarishiga ta`sir qilgan omillarni va material sigimini aniqlash lozim.

Tahlillarni bajarish uchun **Axborot manbalari sifatida** quyidagilar xizmat qiladi:

-reja va moddiy ta`minot bo`limining ma`lumotlari (korxonaning rejalashtirilgan davrda moddiy resurslarga, moddiy qiymatliklar zahiralari normalariga bo`lgan ehtiyoji)

- ayrim turdagi materiallarning kirimi va chiqimi to`g`risidagi buxgalteriya hisobi ma`lumotlari, materiallarni hisobga olish to`g`risidagi boshlang`ich ma`lumotlar (kirim orderlari, yuk xatlari, limit kartalari va boshqalar)

- ishlab chiqarish maqsadlari uchun materiallar xarajatlari to`g`risidagi yillik va kvartal hisobot ma`lumotlari .

A) Moddiy resurslardan foydalanishning tahlili

Tahlil qilishda orqali materiallardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajat bo`lgan bo`lsa, u holda qancha kam mahsulot ishlab chiqariladi eki materiallarni iqtisod qilish natijasida qancha qo`shimcha mahsulot ishlab chiqarilganligini aniqlash lozim kerak. Bularni hisoblash usuli quyidagicha:

1.Mahsulot birligi uchun belgilangan xarajat normasini materiallarga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi;

2.Olingan iqtisod yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko`paytiriladi;

3.Materiallarni sarf etishda sodir bo`lgan ortiqcha xarajat reja bo`yicha belgilangan xarajat normasiga bo`linadi.

Jadval №--

Ko`rsatkichlar	Bazis yili	Joriy yil	farqi
1tonna tayyor mahsulotga sarflanadigan xom-ashyo, kg			
1 tonna xom ashyoning bahosi, ming so`m.			
1 tonna tayyor mahsulotga sarflanadigan xom-ashyo xarajatlari ming so`m.			

B) Material sig`imining tahlili

Moddiy resurslardan foydalanish baholovchi yana bir ko`rsatkich material sig`imidir.Ushbu ko`rsatkich umumiy bo`lib har qanday korxonada qo`llash mumkin va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$MX$$

$$Ms = \frac{TM}{MX};$$

$$TM$$

Bu erda: MX- moddiy xarajatlar,

TM- tovar mahsulot hajmi.

Material sig`imi tahlili

jadval №--

№	Ko`rsatkichlar nomi	Bazis yili	Joriy yil	Farqi, +,-	Rejaning bajarilishi %
1.	Tovar mahsulot, m.so`m.				
2.	Moddiy xarajatlar m.s. SHu jumladan: -xom-ashyo va asosiy materiallar -YOrdamchi materiallar -yoqilg'i -energiya				
3.	Material sig'imi, tiyin				

6. Mahsulot tannarxi tahlili

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

6.1. Mahsulot tannarxining kamaytirishning ahamiyati va uni tahlil qilishning asosiy vazifalari.

6.2. Mahsulot tannarxi rejasining bajarilishiga umumiy baho.

6.3. Bir so`mlik tovar mahsulotga ketgan xarajatlarni tahlil qilish

6.4. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ketgan xarajatlarni tahlil qilish.

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishning vazifalari quyidagilardan iborat: mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi Fomillarni aniqlash, material va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish ustidan nazorat olib borish, mahsulot ayrim turlarining haqiqiy tannarxini reja tannarxi bilan solishtirish va farqlarni belgilash, ularning sabablari va tannarxni arzonlashtirishning rezervlarini aniqlash.

Ushbu tahlilda 1 so`mlik tovar mahsulot xarajatlarining bazis va rejaga nisbatan o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu xarajatlarning o'zgarishiga uchta omilning, ya'ni mahsulot hajmi va tuzilishining o'zgarishi, xom-ashyo va mahsulotlarning bahosining o'zgarishi va ayrim mahsulotlar tannarxi o'zgarishlarining ta'siri aniqlanadi.

Tahlillarni bajarish uchun Axborot manbalari sifatida

Jami tovar mahsulotning tannarxini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-t "Sanoat mahsulotining tannarxi to'g'risidagi hisobot" nomli shakldan olinadi. Shuningdek № 5 shakl choraklik hisobot, № 5 shakl (6-bo'lim) va № 2 shakl yillik hisobot. Bulardan tashqari kundalik material xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, buxgalteriya hisobi registrlaridagi ma'lumotlar. Korxonalar, uchastkali, brigadalari ishlari to'g'risidagi hisobotlar korxonalar ayrim bo'linmalarining mahsulot tannarxini tahlil qilish uchun axborot manbai sanaladi.

A). Bir so`mlik tovar mahsulotga ketgan xarajatlarni tahlil qilish.

Bir so`mlik tovar mahsulotga ketgan xarajat - ishlab chiqarish samaradorligi ko`rsatkichlaridan biridir. Bu ko`rsatkich foyda bilan to`la tannarx o`rtasidagi bog`liqlikni yaqqol ko`rsatadi. Bir so`mlik tovar mahsulot xarajatlari quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$\frac{\text{1 so`mlik tovar mahsulot xarajatlari}}{\text{TM}} = \frac{\text{TT}}{\text{TM}}$$

bu erda: TT- to`la tannarx,
TM- tovar mahsulot.

Bir so`mlik tovar mahsulotga ketgan xarajatlar tahlili

jadval

№16

Ko`rsatkichlar	Bazis yil	Reja bo`yicha	Joriy yilda haqiqatda		
			Reja tannarx Reja baho	Haq tannarx Haq. baho	Haq. tannarx Reja baho
Jami tovar mahsulotning to`la tannarxi mln. so`m					
Tovar mahsulot ulgurji bahoda mln. so`m					
Bir so`mlik tovar mahsulot xarajatlari, tiyin					

B) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tahlili

Ushbu tahlilda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tahlil qilinadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari 4 guruh xarajatlardan tashkil topgan:

- Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi,
- Davr xarajatlari,
- Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar,
- Favqulotda xarajatlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi o`z navbatida quyidagi elementlardan tashkil topgan: moddiy xarajatlar, mehnatga haq to`lash xarajatlari, ijtimoiy sugurtaga ajratma, asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, boshqa xarajatlar.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot tannarxining asosiy (80-90%) qismini moddiy xarajatlar tashkil qiladi. SHuning uchun ushbu xarajatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Davr xarajatlari ikki qismdan tashkil topgan: sotish xarajatlari va boshqaruv xodimlarning ish haqi Mxarajatlari.

Tahlil qilish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tuzilishi aniqlanadi va u erdagi o`zgarishlarga baho beriladi, sabablari aniqlanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tahlili

Jadval №17

Xarajatlar nomi	Bazis yil		Joriy yil		farqi	
	M.so`m	S.v %	M.s	S.v %	M.s.	%
1. Mahsulot sotishdan olingan sof daromad						
2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari						
2.1.Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi- jami: shu jumladan -moddiy xarajatlar -mehnatga haq to`lash xarajatlari -ijtimoiy sug`urtaga ajratma -asosiy fond va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi -Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq boshqa xarajatlar						
2.2.Davr xarajatlari jami- shu jumladan: -sotish xarajatlari -Ma`muriy xarajatlar						
2.3.Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar						
2.4.Favqulotda zararlar						

7. Корхонанинг доимий харажатлари таҳлили

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

1.1. Таҳлил вазифалари ва асосий ахборот манбалари

1.2. Доимий харажатлар тўғрисида тушунча ва уларни ҳисоблаш методикаси

1.3. Доимий харажатларни таҳлил қилиш усуллари.

.....

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Таҳлилнинг асосий вазифалари бўлиб – харажатлар (нормативлар)нинг ҳисобланган миқдорларининг асосланганлигини баҳолаш; харажатнинг баъзи турига ижобий ва салбий таъсир кўрсатувчи омилларни ҳисоблаш; доимий харажатлар таркибини ўрганиш; ўрганилаётган корхона фойдасига доимий харажатлар миқдорининг таъсирини кўрсатиб бериш; доимий харажатларни оптималлаштиришга қаратилган тадбирларни ишлаб чиқиш.

Таҳлилнинг объекти бўлиб, алоҳида харажат турлари ва доимий харажатларнинг умумий суммаси ҳисобланади.

Tahlillarni bajarish uchun Axborot manbalari sifatida

Jami tovar mahsulotning tannarxini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-t "Sanoat mahsulotining tannarxi to'g'risidagi hisobot" nomli shakldan olinadi. Shuningdek № 5 shakl choraklik hisobot, № 5 shakl (6-bo'lim) va № 2 shakl yillik hisobot sanaladi.

Ҳисоб-китоб қисмини бажаришда қуйидаги жадваллардан фойдаланилади.

Доимий харажатларнинг умумий миқдори таҳлили

Жадвал № _

№	Харажат тури	Ўтган давр	Жорий давр	Фарқи (+,-)	Ўзгариши%
1	Жами доимий харажатлар				
	Шу жумладан:				
а	Сотиш харажатлари				
б	Маъмурий харажатлар				
в	Бошқа операцион харажатлар				

Олинган натижалардан хулоса қилинади.

Умумишлабчиқариш ва умумхўжалик харажатлари таҳлили

Жадвал. №

№	Харажат тури	Ўтган	Жорий	Фарқи	Ўзгариши%
---	--------------	-------	-------	-------	-----------

		давр	давр	(+,-)	
1					
2					
3					
4					
..					

Олинган натижалардан хулоса қилинади.

Умумишлабчиқариш ва умумхўжалик харажатлари ўзгаришининг омиллари

Табл. №

Харажатлар	Омиллар	
Бошқарув аппарати ходимларининг иш ҳақиси	Ходимлар сонининг ва ўртача иш ҳақи миқдорининг ўзгариши	$A = \Phi \times HA,$ $\Delta A_{\Phi} = \Delta \Phi \times HA_{плв}$ $\Delta A_{HA} = \Phi_{\phi} \times \Delta HA$ $M = K \times Ц,$ $\Delta M_{K} = \Delta K \times Ц_{плв}$ $\Delta M_{Ц} = K_{\phi} \times \Delta Ц$
Асосий воситалар мазмуни: Амортизация, ёритиш, иситиш...	Асосий воситалар қция нормаларинг ўзгариши Истеъмол нормалари ва хизматлар қийматининг ўзгариши	$3P = V \times Ц,$ $\Delta 3P_V = \Delta V \times Ц_{плв}$ $\Delta 3P_{Ц} = V_{\phi} \times \Delta Ц$
Жорий таъмирлаш, синов ва тажрибаларга харажатлар	Иш ҳажми ва қийматининг ўзгариши	$3 = KM \times 3C,$ $\Delta 3_{KM} = \Delta KM \times 3C_{плв}$ $\Delta 3_{3C} = KM_{\phi} \times \Delta 3C$
Енгил автомашинани сақлаш харажатлари	Машиналар сони ва битта машинани сақлаш харажатларининг ўзгариши	$PK = K \times D \times CD,$ $\Delta PK_K = \Delta K \times D_{плв} \times CD_{плв}$ $\Delta PK_D = K_{\phi} \times \Delta D \times CD_{плв}$ $\Delta PK_{CD} = K_{\phi} \times D_{\phi} \times \Delta CD$
Хизмат с афари харажатлари	Хизмат сафарининг кунлик қиймати ва унинг ўртача давомийлиги	

**Бошқа операцион харажатлар ва сотув билан боғлиқ бўлмаган
харажатлар динамикаси**

табл. № _

Харажат тури	Ўтган давр		Жорий давр		Фарқи (+,-)	
	Мингсўм	Сол.вазни,%	Мингсўм	Сол.вазни,%	Мингсўм	Сол.вазни,%

Олинган натижалардан хулоса қилинади.

Таҳлил натижасида олинган натижалардан келиб чиқиб, ўрганилаётган корхонада доимий харажатларни оптималлаштириш буйича тадбирлар ишлаб чиқиш.

8. Korxonona faoliyati moliyaviy natijalari tahlili

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

- 7.1.Moliyaviy tahlilning maqsadi va uslublari.
- 7.2.Moliyaviy tahlilning mazmuni.
- 7.3.Korxonona foyda ko`rsatkichlari tahlili.

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi - korxonona moliyaviy holatining ob`ektiv va aniq ko`rinishini ifodalovchi, uning daromadlari va zararlari, aktivlar va passivlar strukturasiidagi o`zgarishlar, debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblardagi o`zgarishlar kabi bir qancha tayanch parametrlarni olish.

Moliyaviy hisobotlarni analitik o`qishning asosiy printsiipi - bu deduktiv metod, ya`ni umumiydan xususiyga, ko`p marta qo`llanilishi kerak.

Ushbu tahlilda birinchi navbatda korxononaning balans foydasi tahlil qilinadi.

Korxonona faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi balans foyda yoki zarar bo`lib hisoblanadi. Ushbu foyda tovar mahsulot sotishdan olingan foyda va zarar, boshqa sotishlardan olingan natijalar va sotishdan tashqari operatsiyalardan tushum va xarajatlardan tashkil topgan. Quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_b = +R_r + -R_{pr} + -R_{vn}$$

Korxonona faoliyatining moliyaviy natijasi shuningdek, mahsulot sotishdan olingan tushum orqali ham xarakterlanadi.

Mahsulot sotishdan tushgan tushum korxononaning ishlab chiqarish davri tugallanganidan dalolat beradi. Mahsulot sotishdan olingan tushumdan qo`shimcha

qiymat solig'i va aktsizlarni ajratib tashlagandan keyin mahsulot sotishdan olingan sof daromad aniqlanadi. U quyidagi formula bilan topiladi:

$$Rr = Nr - Sr - Pd$$

Korxonada faoliyati moliyaviy natijalari tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- foyda ko'rsatkichlarining dinamikasiga baho berish;
- foydaning tashkil topishi va taqsimlanishi ma'lumotlarini asoslash;
- foydaga turli omillarning ta'sirini aniqlash va hisoblash;
- foydani yanada ko'paytirish rezervlariga baho berish;

Balans foyda tahlili

Jadval №17

№	Ko'rsatkichlar nomi	Bazis yil	Joriy yil	Farqi	O'sish darajasi %	Balans foydaga ta'siri %
1.	Balans foyda					
2.	Mahsulot sotishdan olingan foyda					
3.	Boshqa xizmatlardan olingan foyda					
4.	Moliyaviy faoliyat bo'yicha foyda (zarar)					

Sof foyda tahlili

Jadval №18

№	Ko'rsatkichlar nomi	Bazis yil	Joriy yil	Farqi, +, -	O'sish darajasi bazis va joriy yil, %
1.	Cof foyda				
2.	Ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi				
3.	Divident fondi				
4.	Boshqa ajratmalar va fondlar				

Мавзу 9. Корхона фаолияти самарадорлиги таҳлили.

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

9.1. Корхона фаолиятининг иқтисодий самарадорлиги.

9.2. Корхона самарадорлигини характерловчи кўрсаткичлар.

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Корхона фаолияти самарадорлигининг нисбий кўрсаткичларини кўриб чиқиш лозим. Бунинг учун рентабеллик кўрсаткичларини ҳисоблаб топамиз.

Ҳисоб-китобларни қуйидаги жадвалда жойлаштирамиз.

Корхонанинг рентабеллик кўрсаткичлари таҳлили (%)

Жадвал № 18.

№	Кўрсаткичлар	Bazis yil	Joriy yil	Farqi,+,-
1.	Сотув рентабеллиги			
2.	<i>Asosiy vositalar rentabelligi</i>			
3.	<i>Joriy aktivlar reita</i>			
4.	<i>Jami mulk rentabelligi</i>			
5.	<i>O'z mablag'larining rentabelligi.</i>			

Korxonada faoliyat natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik korxonada foydalik darajasini xarakterlaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob-kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'rni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida rentabellikning quyidagi turlari aniqlanadi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik:

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari}} * 100\%$$

Ushbu ko'rsatkich bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foyda summasini xarakterlaydi.

2. Asosiy vositalar rentabelligi. Asosiy vositalar rentabelligi har bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini

xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} \times 100 \%$$

3. Sotish bo'yicha rentabellik. Sotish bo'yicha rentabellik sotilgan mahsulotlarning foydalik darajasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan tushumga bo'lish asosida aniqlanadi. YA'ni:

$$R = \frac{\text{Sotishdan olingan foyda}}{\text{Sotishdan olingan tushum summasi}} \times 100\%$$

4. Joriy aktivlar rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich oborot aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan foyda, sof foyda summasini xarakterlaydi. Oborot aktivlar rentabelligi olingan sof foyda summasini oborot aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{joriy aktivlar o'rtacha yillik qiymati}} \times 100\%$$

5. Jami mulk rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich korxonada mulkning foydalilik darajasini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich har bir so'mlik mulkka to'g'ri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonada mulki jami}} \times 100\%$$

6. O'z mablag'larining rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'ziga tegashli bo'lgan mablag'larning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Korxonada sof foydasini uning o'zlik mablag'lari manbaiga bo'lish asosida o'zlik kapitalining foydalilik darajasi o'rganiladi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonada o'zlik mablag'lari}} \times 100\%$$

7. Qarz mablag'lari rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich korxonada sof foydasini qarzga olingan mablag'lariga nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich har bir so'mlik qarz mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalayli.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz mablag'lari}} \times 100\%$$

Qarz mablag'lari jami

8. Asosiy vositalar va moddiy oborot mablag'lari rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini korxonaga asosiy vositalari va moddiy oborot mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi. U har bir so'mlik asosiy va oborot mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini xarakterlaydi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy va oborot mablag'lari o'rt. yil. qiym.}} \times 100\%$$

Олинган натижалардан келиб чиқиб, ўрганилаётган даврда корхона фаолиятининг кўрсаткичларини баҳоланг.

10 XUSUSIY KAPITAL TAHLILI

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

1. Хусусий капитал ва унинг тавсифи
2. Хусусий капитал турлари
3. Хусусий капитални тахлил қилиш услубиёти.
.....

Xususiy kapital tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokozolar kiradi.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbai bo'lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv 1-bo'limi va «Xususiy kapital to'g'risidagi» hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda biz tahlil ishlarini olib boramiz. Mazkur mavzuning hisobi 12 «Jurnal orderi» da yuritilib, ushbu hujjat formasi ham manbalar sifatida ko'rilishi mumkin.

Xususiy kapital hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;
- xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsentlar o'rganiladi va ularni shartli ravishda to'rtta katta guruhlarga ajratiladi:

1. Rentabellik koeffitsentlari.
2. Likvidlik koeffitsentlari.
3. To'lov qobiliyati koeffitsentlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibida bir qancha koeffitsentlarni oladi:

Demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:

- xususiy kapital rentabelligi;
- korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi;
- leveridj;
- sotish rentabelligi. **Likvidlilik koeffitsentlariga:**

- a) tez likvidlanadigan koeffitsentlar;
- b) debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsenti;
- v) ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi koeffitsenti;
- g) qiyin likvidlanish koeffitsenti.

To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsentlarga quyidagilar kiradi:

- qarz va xususiy kapital nisbati koeffitsenti;
- xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsenti;
- qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsenti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summalarini o'rganiladi.

Bu koeffitsentlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsentlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

Sof foyda

Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati

ko'rinishida hisob-kitob ishlarini bajarishimiz kerak.

Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarining yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

Jami investitsiyalar rentabelligi. Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun,

$$\frac{\text{Sof foyda} + (\text{Kreditlar uchun foiz} * \text{foyda solig'ining korrekti rovka qilingan stavkasi}) + \text{Rezervlar uchun ajratma.}}{\text{Jami aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

kabi hisoblash ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu yerda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatining yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'ining korrektilovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Leverdj. Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini kursatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsenti bilan jami investitsiyalar

orasidagi farq koeffitsenti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaga xususiy kapitalining shunchalik o'rganilganligini bildiradi.

Bir aksiya uchun daromadni hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsenti. Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbaiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsent yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa $A1 > A2$ u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsenti

$$\frac{\text{Xususiy kapital qiymatini}}{\text{Jami mablag'lar}}$$

formulasi orqali topiladi. Bu koeffitsent qanchalik birga yaqinlashib borsa, korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsientning kamida 50% ga ega bo'lishlari lozim.

korxonaning xususiy kapitali va dinamikasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	O'zgarishi		Yil oxiriga qoldiq
		ko'payishi	kamayishi	
1	2	3	4	5
1. Ustav kapitali				
2. Qo'shilgan kapital				
3. Rezerv kapitali				
4. Taqsimlanmagan foyda				
5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar				
JAMI:				

11 Pul oqimlari tahlili

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

- 1. Pul mablag'lari harakatini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari**

2. **Pul oqimlarining tahlili**
3. **Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakatining tahlili**
4.

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Korxonaning ishining samaradorligiga, barqaror moliyaviy holatga korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlariga pul mablag'lari o'z vaqtida va to'la hajmda kelib tushishi va to'lanishi natijasida erishish mumkin.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-SH shaklidagi «Korxonaning (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida» gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot — moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Pul mablag'lari oqimiga so'm va valyutadagi pul mablag'lari kiritiladi. SHu tufayli 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliya hisobotida maxsus «Valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» bo'lib, unda davr boshi va oxiridagi qoldig'i va ularning kelib tushish va sarflanish summasi ko'rsatiladi.

Pul mablag'lari oqimini o'rganishda ishlatiladigan asosiy atamalar quyidagilardan iborat:

Pul oqimlari — pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarning kirimi (kelib tushishi) va chiqimi (sarflanishi).

Pul ekvivalentlari — bu pul mablag'lariga erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investitsiyalar.

Pul mablag'lari — bu kassadagi naqul pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lar.

Operatsiya faoliyati — bu investitsiya va moliyaviy faoliyatni istisno qilganda, korxonaning daromad keltiradigan asosiy va boshqa faoliyati.


Investitsiya faoliyati ~ pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish.

Pul mablag'larining oqimini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ta'riflaydi:

1. Pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi.
2. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi.
3. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining o'zaro saldosi.

4. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari nisbatining koeffitsienti (pul mablag'lari oqimi koeffitsenti). Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining summasi moliyaviy hisobot shakli bo'lmish 4-shakl «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» bo'yicha to'rt guruhga guruhlashtirilgan.

Pul mablag'lari oqimi



76-jadval

pul oqimlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
	Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i, %

1. Pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot yil boshiga qoldig'i				
2. Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining kirimi (+), chiqimi (-)				
3. To'langan soliqlar				
4. Investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi				
5. Moliyaviy faoliyatdagi sof kirim yoki chiqim				
Jami pul mablag'larning harakati:				
Sof ko'payish yoki kamayish				

jadval

pul mablag'lari harakatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chnqimi	
		Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmosh, %	Summa, ming' so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelab tushgan pul mablag'lari	010				
2. Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020				
3. Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030				
4. Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	040				
JAMI:	—				
Operatsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	050				

Investitsiya faoliyati — korxonada investitsiya faoliyatida nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar, ya'ni ko'chmas mulk bo'lmish bino, jihozlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks etiriladi.

-jadval

investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlaridagi pul mablag'lari harakatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmoga, %
1	2	3	4	5	6
1. Xo'jalik (operatsion) faoliyatidan pul mablag'lari ning sof holati	050				
2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	060-070				
3. Olingan va to'langan foizlar	110-120				
4. Olingan va to'langan devideklar					
5. Investitsiya va moliyaviy faoliyat ning boshqa jarayonlaridagi pul mablaglarining harakati	080-090, 130-170				
6. Jami to'langan soliqlar	190-200				
Jami					
Investitsiya, moliyaviy va soliq lanishdan so'ng sof pul oqimining natijasi	—				

Moliyaviy faoliyat — bo'limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi va chiqimlar aks etadi. Bulardan tashqari korxonada pul ishtirokisiz investitsiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha chiqimlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, asosiy vositalarni uzoq muddatli kredit hisobiga sotib olish, kreditor qarzlarni aksiyani chiqarish va kreditlarga qo'shimcha aksiyani berish orqali bo'lishi mumkin.

Pul mablag'larining etarli yoki etishmasligini aniqlashning ikkinchi usuli bu pul mablag'larining aylanish davrini aniqlashdan iboratdir.

$$\text{Pul mablag'larining Aylanish davri, kunda} = \frac{\text{Pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i}}{\text{Oborot summasi}} * \text{urganilish davri}$$

Pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i 5000 — «Kassadagi pul mablag'lari» schyoti, 5100 — «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari» schiyoti, 5200 — «CHet el valyutasidagi pul

mablag'lari» schyoti, 5500 — «Bankdagi maxsus schyotlar» schyoti orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i} = \frac{\frac{\text{1 oy bosh Qoldiq}}{2} + 2 \text{ oy boshqoldiq} + \frac{\text{N—oy bosh. qoldiq}}{2}}{N-1}$$

Bunda: N — oylar soni.

jadval

Pul mablag'larining oylar bo'yicha harakatining tahlili

oylar	pul mablag'larining qoldig'i (ming so'm)	oborot summasi, (ming so'm)	aylanish davri, kunda $1 \times 30/2$
YAnvar			
Fevral			
Mart			
Aprel			
Va hokazo.			

pul mablag'lari oqimini egri uslub orqali hisoblash tizimi va uni tahlil qilish uslubi

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'larining ko'payishi (+) yoki uning kamayishi (-)	Hisobot yilida (summa, ming so'm)	Axborot manbai
1	2	3	4
1. Joriy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			
1.1. Sof foyda	+		Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl)
1.2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.3. Tovar moddiy zaxiralar qoldig'ining ortishi			«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.4. Yaratilgan qiymatliklar			«Moliya. Natij. to'g'r.»gi

bo'yicha QQSni ortishi			hisobot (2-shakl),
1.5. Debitorlik qarzlarning undirilishini kamayishi (pasayishi)	-		«Bo'xgalteriya balansi» (1-shakl) «Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqid.ma'l. (2a-shakl)
1.6. «Boshqa aylanma (joriy) aktivlar moddasi qoldiqning o'sishi			«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.7. Kreditorlik qarzlarning o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl) «Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida»gi ma'lumotnoma (2a-shakl)
1.8. Daromad (foyla)dan to'lanadigan majburiyatlarning o'sishi	+		«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl)
1.9. Kelgusi davr daromadlar. o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.10. Kutilayotgan xarajatlar rezervining o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.11. Boshqa qisqa muddatli majburiyatlarning usishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.12. Joriy faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	XXX		Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
2. Investitsion faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			
2.1. Nomoddiy aktivlarning o'sishi	—		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.2. Yangidan yaratilgan va sotib olingan asosiy Vositalar	-		«Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobot (3-shakl)
2.3. Tugallanmagan qurilish hajmining o'sishi	—		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.4. Material qiymatliklarga daromadli qo'yilmalarning o'sishi			«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.5. Boshqa uzoq muddatli aktivlarning o'sishi	—		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.6. Investitsion faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	XXX		Yr qoridagiu ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
3. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			

3.1. Moliyaviy qo'yilmalarning o'sishi	—		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.2. Uzoq muddatli majburiyatlar (kredit va qarz)ning o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.3. Qisqa muddatli kredit va qarzlarning o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.4. Bankning qisqa muddatli krediti bo'yicha majburiyatlarining o'sishi	+		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.5. Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	XXX		YUqoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
4. Hamma faoliyat turlaridan pul mablag'larining jami o'zgarishi	XXX		Hisobkitob qilinadi
5. Hisobot yili boshiga pul mablag'lari qoldig'i	XXX		«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
6. Hisobot yili oxiriga pul mablag'lari qoldigi	XXX		Hisob-kitob qilinadi

12. Korxonalar moliyaviy holati tahlili

Nazariy qismning namunaviy mazmuni:

Бунда korxonalar moliyaviy holatiga baho beruvchi koeffitsientlar aniqlanadi. Korxonalar moliyaviy holatini koeffitsientlar orqali baholashda quyidagi besh guruh ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

1. Korxonalar rentabelligini baholovchi koeffitsientlar.
2. Mahsulot foydaliligini baholash.
3. Ish faolligini baholash.
4. Bozoriy mustahkamlikni baholash
5. Korxonalar pul to'lash qobiliyatini baholash.

Tahliliy - hisob qismining namunaviy mazmuni.

1. Korxonalar rentabelligini baholovchi koeffitsientlar.

$$1.1 \text{ Umumiy rentabellik} = \frac{\text{Soliq to`laguncha foyda}}{\text{Mulkning o`rtacha qiymati}} \times 100$$

$$1.2 \text{ Sof rentabellik} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Mulkning o`rtacha qiymati}} \times 100$$

$$1.3 \text{ Xususiy kapitalning sof rentabelligi} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapitalning o`rtacha miqdori}} \times 100$$

$$1.4 \text{ Ishlab chiqarish fond- larning umumiy rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to`languncha foyda} \times 100\%}{\text{Asosiy vositalar va moddiy aktiv- larning o`rtacha qiymati}}$$

2. Mahsulot foydaliligini baholash.

$$2.1 \text{ 1 so`m aylanishning sof foydasi} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sotishdan olingan daromad.}}$$

$$2.2. \text{ 1so`m aylanishga - to`g`ri keladigan sotishdan olinadigan} = \frac{\text{Sotishdan olinadigan foyda}}{\text{Sotishdan olinadigan daromad foyda}}$$

$$2.3.1 \text{ so`m aylanishga to`g`ri keladigan balans foyda} = \frac{\text{Soliq to`lagunchagi foyda}}{\text{Sotishdan olinadigan daromad}}$$

3. Ishchi faolligini baholash.

$$3.1 \text{ Umumiy kapi- tal samarasi} = \frac{\text{Sotishdan olingan daromad}}{\text{Mulkning o`rtacha qiymati}}$$

$$3.2 \text{ Jami aylanma aktivlarning aylanishi} = \frac{\text{Sotishdan olingan daromad}}{\text{Aylanma aktivlarning o`rtacha qiymati}}$$

$$3.3 \text{ Zahiralarning} = \text{Sotishdan olingan daromad.}$$

aylanishi = $\frac{\text{Zaxiralarning o`rtacha qiymati}}{\text{Zaxiralarning o`rtacha qiymati}}$

X 3.4.Xususiy kapital-aylanishi = $\frac{\text{Sotishdan tushgan daromad.}}{\text{Xususiy kapitalning o`rtacha qiymati}}$

4. Bozordagi mustahkamligini baholash

4.1. Avtonomlik koef. (Ka =0,5) = $\frac{\text{Xususiy mablag`lar manbai}}{\text{jami balans}}$

4.2.Xususiy va qarz mablag`- Korxonalarining uzoro nisbat koef. (norm Kz > 1) = $\frac{\text{Korxonalarining uzoro nisbat}}{\text{Xususiy mablag`lar manbai}}$

4.4.Zahira va xarajatlar-ni xususiy manbalar bilan ta`minlanish koefitsienti (norm. Koz > 0,6- 0,8) = $\frac{\text{Xususiy aylanma mablag`lar}}{\text{Zahira va xarajatlar}}$

4.4. Ishlab chiqarish maqsad- mulk koefitsienti (K rm. Ki 0.5) = $\frac{\text{Asosiy vositalar, kap.mablag`lar, ishlab chiqarish zahira,tugallanmagan ICH}}{\text{Jami balans}}$ laridagi

5.Korxonaning pul to`lash qobiliyatini baholash.

5.1. Mutloq likvidlik koefitsienti (0.2-0,5) = $\frac{\text{KK-+Phkr}}{\text{QMP+QMM}}$

Bu erda: QQ-qimmatli qog`ozlar,
Phkr-hisob kitob raqamidagi pul
QMM-qisqa muddatli majburiyatlar;
QMP- qisqa muddatli passivlvr.

$$\text{5.2. Koplash koef-} \quad \text{Aylanma aktivlar qiymati} \\ \text{fitsienti } (> 2) \quad = \frac{\quad}{\quad} \\ \text{Qisqa muddatli majburiyatlar}$$

Xulosa va takliflar.

Ushbu bo`limda o`rganilayotgan korxonaning belgilangan davrdagi holatiga umumiy baho berish, korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarni ko`rsatish zarur. So`ng korxonaning samaradorligini oshirish maqsadida tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlardan foydalanib korxonaning faoliyatining samaradorligini oshirish bo`yicha taklif va tadbirlarni belgilab berish lozim.

Xulosa

Xulosada kurs ishining xar bir bobi bo`yicha olingan natijalar umumlashtiriladi. Aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo`llari ko`rsatiladi.

Kurs ishini rasmiylashtiri va topshirish tartibi

Kurs ishi qo`lyozma shaklida yoki komp'yuterda formata A-4 standart qog'ozning bir tomonida yoziladi. Har bir betda ramka chizilib, qog'ozning chap tomonidan 2 sm, qolgan 3 tomoni 0,5 sm. Har bir varaq raqamlanib chiqilishi lozim.

Kurs ishi quyidagi tartibda rasmiylashtirilishi lozim:

- Kafedra mudiri tomonidan berilgan topshiriq blankasi (ilova № 2);
- Kurs ishini qabul qilayotgan o`qituvchi taqrizi (ilova № 3);
- mundarija;
- kirish;
- nazariy qism;
- bo`limlar hisob va tahlillari;
- xulosa va takliflar
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

To`liq rasmiylashtirilgan ish titul' varag'i bilan fayl papkaga joylashtirilib, topshiriladi. (ilova 1).

Kurs ishi to`g'ri, chiroyli va toza holatda, tuzatishlarsiz rasmiylashtirilishi lozim. Kurs ishi kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a`zolari oldida himoya qilinadi.

Himoya uchun prezentatsiya materiallari tayyorlanib, taqdim etiladi va kurs ishi papkasiga joylashtiriladi..

Himoyadan so`ng kurs ishi kafedrada qoldiriladi..

Asosiy adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining “Korxonalar to`g`risida”gi Qonuni. 1991 yil 15 fevral.
2. O`zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoyalash to`g`risida”gi Qonuni. O`zbekistonning yangi Qonunlari. №14. – T.: Adolat,1996.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi majlisining «2008 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida» gi 2009 yil 13 fevraldagi qarori. Soliq va bojxona xabarlari. 2009 yil 17 fevral.
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozorni iste`mol tovarlari bilan to`ldirishni rag`batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar hamda savdo tashkilotlarining o`zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori. 2002 yil 13 noyabr`. 390-son.
5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ”Past rentabelli, zarar ko`rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor davlat korxonalarini va ob`ektlarini xususiylashtirishni jadallashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarori, 2003 yil avgust. 368-son.
6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nooziq-ovqat iste`mol tovarlari bilan savdo qilishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori, 2003 yil 28 iyul.
7. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi Nizom. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 №54 son. Buxgalterlar va auditorlar Assosatsiyasining nashriyot markazi. T.,2001 .
8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Xalq so`zi, 2011 yil 22 yanvar`.
9. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Xalq so`zi. 30.01.2010 y.
10. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir». Prezident I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. 2010 y.
11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. T.: O`zbekiston, 2009 y. 54 b.

12. Abdullaev YO, Ibragimov A. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. Toshkent «Mehnat» 2001.

13. Bakanov M.I., Sheremet A.D. "Teoriya ekonomicheskogo analiza" M. 1997.

14. Analiz xozyaystvenoy deyatel'nosti predpriyatiy APK. G. F.Savitskaya Minsk. OOO. “Novoe znachki” 2001.

15. E. Ergashev “Iqtisodiy va moliyaviy tahlil”. Toshkent. “Moliya” 2000 yil.

16. Ekonomicheskii analiz. Pod redaktsiey M.I. Bakanova i prof. SHERemeta A.D. Moskva. “Finansi i statistika” 2001 god.

17. A. Qosimov, G. Davlatova “Xo`jalik faoliyati tahlili”. Toshkent 2007.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Analiz pribil'nosti produktsii.-M.: Delo, 1996.

2. Analiz finansovoy otchyotnosti predpriyatiy pri ix investirovaniiii i kreditovanii.-M.: -2000.
3. Bakanov M.I., SHERemet A. D. Teoriya ekonomicheskogo analiza.-M.:Finansi i statistika 1999.
4. Bernstein A.A. “Analiz finansovoy otchyotnosti”.-M.:Finansi i statistika. M.1996.
5. B.V. Prikin. Texniko-ekonomicheskij analiz proizvodstva. Izd. YUNITI. M.:2000g.
6. M.A.Rajabova. Iqtisodiy tahlil. “Fan va texnologiya “ Toshkent 2006y.
7. Ro`zieva D.I. Ulashev X.A., Musaeva J.K. «Xo`jalik faoliyati tahlili» fanidan ma`ruzalar matni. Buxoro 2013.
- 8.
9. **Tahlil qilinayotgan korxonaning hisobot ma`lumotlari:**
 - **BUXGALTERIYA BALANSI – 1-SONLI SHAKL**
 - **MOLIYAVIY NATIJALAR TUGRISIDAGI XISOBOT – 2-SONLI SHAKL**
 - **DEBITORLIK VA KREDITORLIK KARZLAR XAKIDA MA`LUMOTNOMA - 2a-sonli shakl**
 - **ASOSIY VOSITALAR XARAKATI TO`GRISIDA XISOBOT - 3-sonli shakl**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI.

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Menejment» kafedrası

«Xo`jalik faoliyati tahlili» fanidan

Курс ИШИ

*Mavzu: “SHoxrud” XJ xo`jalik faoliyati tahlili
(2009-2010 yillar)*

Bajardi:

*2-10 MNDT gurux tolibi
Pulatov SH.*

Qabul qildi:

dots. Ro`ziyeva D.I.

Buxoro-2014

2-ilova

Tasdiklayman
« Menejment» kafedrası mudiri
_____ dots. Ro`ziyeva D.I.

K u r s i s h i

Kurs bo`yicha _____

Gurux _____ Talaba _____ Rahbar _____

TOPSHIRIQ

1.Kurs ishi mavzusi: _____

2.Boshlang'ich ma`lumotlar: _____

3.Qo`llanmalar: _____

4.CHizma qismining tuzilishi: _____

5.Tushuntirish xatining tuzilishi: _____

6.Qo`shimcha topshiriq va ko`rsatmalar: _____

7.Kurs ishi topshirish davri: Reja _____ Amalda _____

Bosqichlar					Himoya
1	2	3	4	5	

Rahbar _____

TAQRIZ

Fan _____

Kurs ishi mavzusi _____

Talaba ism sharifi _____

Kurs, guruh _____

Taqriz bo'yicha olinadigan yuqori ball 100%

Jumladan baholash mezonlari:

A) Kurs ishida mavzu bo'yicha nazariy tomonlarini yoritilganligi

(maksimal ball – 30%) _____

B) Kurs ishida tanikli iktisodchilarning asarlaridan manba sifatida foydalanilganligi

(maksimal ball – 20%) _____

V) Amaliy, statistik ma'lumotlar va tahlillar borligi (maksimal ball – 20%)

G) Kurs ishiga ilmiy va ijodiy yondashish, talabaning mustakil fikrlash darajasi

(maksimal ball 20%) _____

D) Kurs ishini rasmiylashtirish, bezash darajasi

(maksimal ball 10%) _____

Kurs ishiga taqrizchi tomonidan quyiladigan jami ball _____

Sana _____ Rahbar _____

O`lch	Var	№ Hujjat	Imzo	Sana			
Bajardi:					Adab	Varaq	Varaqlar
Rahbar:							
Kaf.mud.							

Ulch	Var	Xujjat №	sana	imzo		bet
Bajardi:						
Raxbar:						

